

# **INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISHNING MUHIM OMILI SANALGAN SHUKRONALIK TUSHUNCHASINING ILMIY TAHLILI**

**Dilbar Ortiqovna ORTIQOVA**

dotsent

falsafa fanlari nomzodi

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti

Toshkent, O'zbekiston

## **Annotatsiya**

Maqolada yosh avlodni barkamol etib tarbiyalashda inson kapitalini rivojlantirishning muhim omili sifatida umuminsoniy qadriyatning asosiy qirralaridan biri bo'lmish shukronalik ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Shukronalik inson ijtimoiy qiyofasining muhim ta'rifi ekanligi, uning madaniylashgan holati, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o'zlashtirish darajasini ifodalashi, shuningdek, insonning ongliligi, fidoiy, sabr-qanoatlili va saxovatligidan dalolat berishi tahlil qilingan.

**Tayanch so'zlar:** shukronalik, inson kapitali, madaniyat, milliy, umuminsoniy qadriyat, fidoiylilik, sabr-qanoatlili, saxovatpeshalik.

# **НАУЧНЫЙ АНАЛИЗ ПОНЯТИЯ БЛАГОДАРНОСТИ КАК ВАЖНОГО ФАКТОРА РАЗВИТИЯ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА**

**Дильбар Артыковна АРТЫКОВА**

Доцент

кандидат философских наук

Ташкентский институт текстильной

и легкой промышленности

Ташкент, Узбекистан

## **Аннотация**

В статье научно обоснована благодарность как важный фактор развития человеческого капитала. Благодарность является важным определением социального имиджа человека и отражает его культурный статус, уровень усвоения национальных и общечеловеческих ценностей. Вместе с тем, проанализировано, что благодарность указывает на сознательность, целеустремленность, терпение и щедрость человека.

**Ключевые слова:** благодарность, человеческий капитал, культура, национальный, общечеловеческая ценность, преданность делу, терпение, щедрость.

Shukronalik insonning hayotda ega bo'lgan ne'matlar, imkoniyatlar va tajribalarni qadrlashi, ularga minnatdorlik bilan munosabatda bo'lishidir. U qadimiy diniy ta'limotlarda ham, zamonaviy axloqiy falsafada ham markaziy tushunchalardan biri sifatida qaraladi.

Ruhiy jihatdan – inson qalbida tinchlik, xotirjamlik va qoniqish uyg‘otadi.

Axloqiy jihatdan – boshqalarga hurmat, mehr va rahmdillik bilan munosabatda bo‘lishni kuchaytiradi.

Ijtimoiy jihatdan – jamiyatda totuvlik, mehr-oqibat va birdamlikni mustahkamlaydi.

Shukronalikning diniy-falsafiy asoslari. Sharq mutafakkirlari (Alisher Navoiy, Jaloliddin Rumiy, Ibn Sino va boshqalar) shukronani ruhiy poklanish va komil insonlikning belgisi deb bilganlar. Diniy manbalarda shukronalik ilohiy ne‘matlarni qadrlash va hayotdan rozilik sifatida talqin qilinadi.

G‘arb falsafasida ham shukronalik baxt-saodatga eltuvchi muhim qadriyat sifatida e‘tirof etiladi.

Shukronalikning amaliy ko‘rinishlari: ota-onaga, ustozga, Vatanning ne‘matlariga minnatdorlik, kichik narsalardan ham quvonish va hayotga ijobiy nigoh bilan qarash, murakkab vaziyatlarda ham tajriba uchun minnatdor bo‘lish.

Ma‘naviy yuksalish – shukronalik qalbni g‘azab, hasad va norozilikdan asraydi.

Salomatlik – olimlar minnatdorlik kayfiyatini yurak va asab tizimi uchun foydali ekanini ta’kidlaydi.

Ijtimoiy birlik – shukr qiluvchi inson atrofdagilar bilan ijobiy munosabatda bo‘ladi.

Shukronalik – umuminsoniy qadriyat bo‘lib, u insonning ruhiy pokligi, jamiyatdagi totuvlik va farovonlikning kafolatidir. Unga amal qilish har bir kishining baxtiyor va mazmunli hayot kechirishiga xizmat qiladi.

Shukronalik hayotdan mamnunlikni, mamnunlik esa mustahkam ishonch, o‘z ishiga bog‘liqlik, e‘tiqodiy barqarorlikni ifoda etadi. Xalqimiz tarixida Abu Nasr Forobiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqa ko‘plab buyuk ajdodlarimiz hayotdan zavqlanib yashash, ertangi kunga ishonch, rozilik va shukronalik, mamnunlik kabi insoniy his-tuyg‘ularni ulug‘lagan, tarannum etganlar.

Jamiyat va inson hayotida shukronalik, tenglik, adolat, sabr, qanoat va minnatdorchilik g'oyalarining ustuvor bo'lishi va ularning amaliyotda o'z ifodasini topishi ko'zlangan maqsadlarga erishishga, belgilangan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, ma'naviy-ma'rifiy mo'ljallarning barcha uchun birdek qadr-qimmat kasb etishiga, fuqarolar o'rtasida birdamlik va hamjihatlik, o'zaro bir-birini tushunish va hurmat ruhi qaror topishiga zamin yaratadi.

Yangi O'zbekiston yoshlarida, eng avvalo, bugungi taraqqiyot yo'limiz, erishgan ulug'vor marralarimizdan faxr-iftixor va shukronalik tuyg'usini rivojlantirish, bunyodkorlik fazilatlarini shakllantirish, hayotga qiziqish, kelajakka ishonch, mavjud narsa va jarayonlardan qoniqish hamda sabr qila olish hissiyotlarini uyg'otish, eng muhimi, yoshlarning o'zi va atrofdagilarga bo'lgan ishonch, hurmat hissini kuchaytiradigan ijtimoiy-ma'naviy muhit yaratish zarurligi bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Mamlakatimiz rahbari bugungi farovon turmushimizdan rozilik, shukronalik barqaror taraqqiyotimiz, tinch-osuda hayotimizdan mamnunlik, yuz berayotgan ulug'vor o'zgarishlarga daxldorlik hissini tuyishimiz, bu holat esa turmush tarzimizning uzviy qismiga aylanishini ta'kidlab, bu borada har bir insonning o'z falsafiy tamoyili shakllanishi zarur, deydilar. Shukronalik bu inson hayotini e'tiborli darajada ijobiy tomonga o'zgartira oladigan mo'jizaviy tuyg'udir. Jamila Shermuxammedova ta'biri bilan aytganda, "shukronalik – baxt qasrini yaratish demakdir. Va shu bilan birga uzoq umr ko'rish baxti shukronalikning mevasidir" [3].

Qur'oni karimda shukr qilguvchilarga ne'matlarini yanada ziyoda qilish va'dasi berilib, shunday deyiladi: "Yana Robbingiz e'lon qilgan(bu so'zlar)ni eslangiz: Qasamki, agar (bergan ne'matlarimga) shukr qilsangiz, albatta, (ularni yanada) ziyoda qilurman. Bordi-yu, noshukurchilik qilsangiz, albatta, azobim(ham) juda qattiqdir" [4]. Darhaqiqat, islom ta'limotida ne'matlarga shukr qilish ulug' fazilat va yuqori daraja deb alohida qayd qilingan. Bu haqda hatto ulug' sahobiy Abdulloh ibn Abbos(r.a.) shunday degan ekan: "Shukr qilishlik – iymonning yarmidir".

Shukronalik tushunchasi insonni maishiy, xulq-atvor madaniyati, moddiy va ma'naviy boyliklaridan oqilona foydalana bilish qobiliyati, belgilangan tartib-intizomlarga rioya qilish, kiyinish, ovqatlanish, bo'sh vaqtdan oqilona foydalanish malakalarini qamrab oladi. Shunday qilib, shukronalik tushunchasi inson barkamolligining holati, uni maktab, muallim, ustoz ko'rganligi, tarbiya topganligini ifodalovchi ko'rsatkichlar, alomatlar, malakalar, ijobiy intellektual qobiliyatlarni o'zida mujassamlashtiradi.

Shukronalik tuyg'ulari birdaniga paydo bo'lmagan, balki har bir xalq tarixiy tajribasining mahsuli o'laroq avlod-dan-avlodga o'tib kelgan. U insonni hayotdagi har xil mayda-chuyda ko'ngilsizlik va noxushliklarga bardoshli, sabr-toqatli bo'lishga, ruhiy holatimiz va qolaversa turmushimizni engillashtirishga yordam beradi. Chunki har bir kishi kundalik turmushda boshqalar bilan muloqotda bo'ladi.

Qanoatli kishi boshqalarning osoyishtaligi va tinchligini o'ylaydi. O'z farog'atini ular osoyishtaligidan ustun qo'ymaydi. Shukronalik tuyg'usiga ega inson odamlarga bo'lgan hurmat va do'stona munosabatini o'zining hatti-harakati bilan ifodalaydi. Bugun hayotimizning eng asosiy maqsadlaridan biri bo'lgan inson manfaatlarini har tomonlama ta'minlanishiga o'z hissasini qo'shadi. "Inson manfaatlarini ta'minlash uchun esa avvalo odamlar bilan, xalq bilan muloqot qilish, ularning dardi-tashvishlari, orzu-niyatlari, hayotiy muammolari va ehtiyojlarini yaxshi biladi" [1].

Shukr qiluvchi insonlarning yaxshi bir odati bor. Ular mag'lubiyatlarini emas, ko'proq g'alabalarini, muvaffaqiyatu yutuqlarini eslab, qalblarida faxr-iftixor tuyg'ularini his etadilar. O'z-o'zidan qoniqish hissi insonni yana va yana oldinga intilishga undaydi. Ruhiyatshunoslikda insonlar ikki toifaga bo'linadi: Optimistlar va pessimistlar. Optimistik tuyg'ularini sog'lom va baxtiyor odamlarda kuzatish mumkin. Ular hech qachon hayotdan nolimaydilar va doim o'zlarida bor narsalar bilan shukr qila oladilar. Tabiat go'zalliklaridan bahra oladilar va Alloh dunyodagi bor narsalarni inson uchun ne'mat qilib berganligini yurak-yurakdan his etadilar. Pessimistlar esa ularning teskarisi.

Optimist-shukrulloh bandalar ko'paysa, bu olam yaxshiliklarga to'lib toshadi, ezguliklar ko'payadi, odam va olam aro aloqalar yanada mustahkamlanadi. Inson mavjud ne'matlarning qadriga etishni o'rganadi, tabiatdan zavq olib yashash mu'jizalarini ko'radi, shafqat va shafolatga oshno bo'ladi. Shukronalik ne'mati bizning har bir hujayramizdan salbiy energiyani chiqarib, uning o'rniga ijobiy quvvat bilan to'ldiradi. Shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, xushmuomalalik, shirin suxanlik bilan bir qatorda shukronalik ham hayotda va ishdagi kamchilikni ochib tashlash va tanqid qilishni, nojo'ya xatti-harakatlar qilayotgan kishilarga nisbatan qat'iyatli va obektiv munosabatda bo'lishni rad etmaydi. Sabr-qanoatli kishi suhbatdoshining so'ziga diqqat bilan quloq soladi, o'rinsiz luqma tashlab so'zini bo'lmaydi, mensimaydigan yoki kamsitadigan ohangda, shuningdek qo'l va gavdasini haddan tashqari qimirlatib, aftini bujmaytirib gapirmaydi.

Boshqalarga mehribon, jonkuyarlik qilish, nazokat ko'rsatish, ularga beg'araz yordam qo'lini cho'zish, kattalarga hurmatda bo'lish, ularning so'zlariga odob bilan quloq solish va o'rinli javob qaytarish, ojizlar yukini yengil qilish, iltimosini bajarish va hokazolar shukronalikning ajoyib ifodasidir. Zero, donolar aytganidek, shukronalikdan – ulug'vorlik va qanoat, ixlos va ishonchdan – mehr-muhabbat namoyon bo'ladi. Shukrona inson, millat sha'ni, qadr-qiymati, obro'-e'tibori, or-nomusi poymol etilishiga yo'l qo'ymaydi. Shukronalikni umuminsoniy qadriyatlar tarzida ham ko'rishimiz mumkin.

Shunday qilib, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy o'zgarishlarni jadallashtirmoq uchun kishilarda yuksak madaniy saviyani, shukronalik fazilatini shakllantirish zarur. Har qanday holatda ham g'azabga berilmaslik ushbu xislatni taqozo etadi. Ya'ni sokinlik va muvozanatni saqlay bilish, hech qachon hech kimdan ranjimaslik, uning bor kamchiligini yutuqlari bilan bir xilda, boricha qabul qila olishdir. Shunday vaziyatda turli yomon so'zlardan o'zini tiya olish juda katta matonatdir. Muloyimlik va shirin so'z bilan muomala qila olish la'nat va azob berishdan saqlaydigan vositadir. Zero, xalq

orasida «yaxshi soʻz jon-ozigʻi» deyiladi. Yoki oʻz dushmaniga ham yaxshilik qila oladigan inson haqiqiy komil insondir.

Shukronalik bizning dunyomizda turli boy madaniyatlarni, oʻzini ifodalashning va insonning alohidaligini namoyon qilishning xilma-xil usullarini hurmat qilish, qabul qilish va toʻgʻri tushuntirishni anglatadi. Uni bilim, samimiyat, ochiq muloqot hamda hur fikr, vijdon va eʼtiqod vujudga keltiradi. Bu faqat maʼnaviy burchgina emas, balki, siyosiy va huquqiy ehtiyoj hamdir. Shukronalik – tinchlikka erishishni musharraf qiluvchi va urush madaniyatsizligidan tinchlik madaniyatiga eltuvchidir».

Oʻzbekiston bozor munosabatlarga asoslangan, shaxs salohiyatini, fuqaro huquq va erkinliklarini roʻyobga chiqarish uchun barcha imkoniyatlarni yaratadigan shukronalik qadriyatlari ustuvorligiga asoslanadigan demokratik jamiyat qurish yoʻlida dadil odimlab bormoqda. Mazkur masalaga toʻxtalib, respublikamiz birinchi Prezidenti I.A.Karimov “hozirgi murakkab va notinch dunyoda hayotimizning barcha sohalarida demokratik jamiyat qurish yoʻlidagi izlanishlarimizda shukronalik nechogʻlik muhim oʻrin tutishini izohlab oʻtirishga hojat yoʻq” [3.182-b.], deb taʼkidlagan edilar. Shukronalik qadriyatlarini yoshlarga yanada samariliroq singdirish yoʻlida oliy taʼlim tizimida oʻqitishning ochiq modellarini keng joriy etish maqsadga muvofiq. Bu, ayniqsa, ijtimoiy siyosiy fanlardan taʼlim berishda alohida ahamiyatga ega.

Umuman olganda, taʼlim tizimidagi islohotlar uning uzluksiz ravishda gumanitarlashuvi, shuningdek barcha fanlarni oʻqitish usullarining oʻzgarib takomillashib borishi jarayonlari bilan xarakterlanadi. Shukronalik va bagʻrikenglikka asoslangan taʼlim tizimini shakllantirishda islom dini manbalari, mutafakkirlar merosi hamda xalqimiz va xorijiy mamlakatlarning bu boradagi tajribasidan ijodiy foydalanish, ularda mavjud bizning voqelikka voz keluvchi jihatlarni samarali qoʻllash malakasini shakllantirish mazkur yoʻnalishdagi muhim vazifalardan biridir. Shuning uchun shukronalik tamoyillarini taʼlim jarayoniga ijodiy qoʻllay bilish uning samaradorligini belgilab beradi. Bu esa barcha sohalarda

shukronalikning to'liq namoyon bo'lishiga jamiyatdagi barqarorlik va taraqqiyotga mustahkam zamin yaratadi [5, 293-b.].

Hayotdan shukronalik, umrdan mamnunlik falsafasini turmush tarzimizga maqsadli singdirish dolzarb masala bo'lib, bu borada quyidagi ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

1) ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida, mahalla tuzilmalarida va ayniqsa, oila muhitida bugungi hayotimizdan shukronalik tarbiyasini tizimli tarzda amalga oshirish;

2) ommaviy axborot vositalari, radio va televidenie orqali hayotimizdan qoniqish, yuz berayotgan pozitiv o'zgarishlar lavhalarini targ'ib etishni takomillashtirish;

3) ta'lim tizimi, mahalla va oila hamkorligida yoshlarning kelajak orzulari, maqsadlarini shakllantirish orqali ularda komil shaxs xarakterini tarkib toptirishni izchil va uzluksizligini ta'minlash;

4) yoshlarning turli kasblar va mashg'ulotlarga bo'lgan qiziqishlarini o'rganish hamda ularni bunyodkorlik faoliyatiga maqsadli yo'naltirish borasidagi ishlarini rivojlantirish.

Demak, jamiyatdagi shukronalik darajasi tarbiya tizimiga, ma'naviy hayot maromini saqlash axloqiy tamoyillar barqarorligiga, axloqiy birdamlik esa turmush tarzi yaxlitligiga ko'p jihatlariga ko'ra bog'liqdir [6, 71-b.]. Insonning onglilik darajasi esa ma'naviy-axloqiy yaxlitlik omilini mustahkamlash imkonini yaratadi. Ana shu jarayonda har bir insonning o'zi yashayotgan barqaror turmush tarzidan qoniqish holatini tarkib toptirish, hayotga qiziqish, undan zavq va surur tuyish fazilatlarini kuchaytirishda katta ahamiyatga egadir [7, 73-b.].

Xulosa qilib aytish mumkinki, shukronalik umuminsoniy qadriyat bo'lib, insoniy fazilatlarini takomillashtirishda, qadriyatlarni tiklashda – milliy birlikni, vatanparvarlik tuyg'ularini mustahkamlashda muhim omil hisoblanadi. Darhaqiqat, "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili" dasturidan yoshlarimizni sog'lom, bag'rikeng, sabr-toqatli va har tomonlama barkamol etib tarbiyalash masalasi va unda inson kapitali rolini oshirish alohida o'rin egallashi tabiiydir. Bu, o'z

navbatida, har bir millatdoshimizning ona zaminimizni sajdagoh kabi muqaddasligini anglashi, uni ko‘z qorachig‘iday asrab, hududiy butunligini, chegaralarimizning mustahkam bo‘lishini ta‘minlash, ichki va tashqi tahdidlardan himoya qilish tuyg‘ularini mustahkamlaydi” [1, 22-b.].

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Mirziyoev Sh. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta‘minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.
2. Karimov I.A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashamiz. 10-jild. – Toshkent: O‘zbekiston. 2002.
3. Toshxodjaeva A. Shukronalik mu‘jizalar. – Toshkent, 2019.
4. Qur’oni karim. – Toshkent, 2001.
5. Masharipova G.K. Atalarimizning islamiy öncesi inançlari ve kutladıkları törenler // 2.Uluslararası Türk kùltürü Sempozyumu 2nd International Turkish Culture Symposium - Turkish Culture Throug Developmentak Periods - 7-8 ekim/October 2024. Ankara. - S. 293-309.
6. Masharipova G.K., Kimsanbayeva Sh.B.Great Discoveries Of The Middle Ages - Scientific Research Of Encyclopedic. Scientists In The Field Of Exact Sciences. International Virtual Conference on Innovative Thoughts, Research Ideas and Inventions in Sciences. Newyork, USA, January 20th, 2021. - Pp. 71-74.
7. Masharipova G.K. The View Of Eastern Thinkers On Youth Education. // Scientists In The Field Of Exact Sciences. International Virtual Conference on Innovative Thoughts, Research Ideas and Inventions in Sciences. - Newyork, USA. January 20th, 2021.- Pp. 71-74.